

O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining
iqtisodiy faollik darajasi 74,1%.

Eng yuqori faollik
ko'rsatkichlari:

Toshkent sh.:
89,9%

Toshkent v.:
77,6%

Andijon v.:
75,7%

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#70 (16523)
2022-yil, 5-oktabr
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqq boshlagan

Yoshlar siyosati
2-bet

Yosh oilalar ajrimiga
sabab nima?

Munosabat
5-bet

Poytaxtda ijara narxi
keskin oshmoqda

Bu qiziq
7-bet

"Nobel" oliy
mukofot emas



BESH TASHABBUS OLIMPIADASI

SEKTOR BOSQICHI BOSHLANDI

3-betga
qarang

YOSH OILALAR AJRIMIGA SABAB NIMA?



"Yoshlar ovozi" muxbiri
Shahruza SATTOROVA suhbatlashdi.

Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo'ladi. Shu bois yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Yoshlar ishlari agentligining Navoiy viloyati boshqarmasi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo'limi mutaxassisi Dilfuza Ne'matova bilan ayni mavzuda suhbatlashdik.

– O'tkazilgan tadqiqotlarning aksariyatida yosh oilalar o'rtasidagi ajrimga iqtisodiy, aynan uy-joy bilan bog'liq muammolar sabab qilib ko'rsatiladi. Agentlik doirasida yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash masalasiga e'tibor qanday?

– Bugungi kunda viloyatimizda 104 ming 785 ta yosh oila bo'lib, ularga har tomonlama yordam berishga harakat qilyapmiz. Uy-joy masalasiga keladigan bo'lsak, yosh oilalarning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga, shu jumladan, daromadi yuqori bo'lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lganlarga ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badal va foizlarni to'lab beryapmiz. Joriy yilning o'tgan davrida viloyatda 1218 ta yosh oilaga ko'p qavatli uylardan turar-joy uchun ijobiy xulosalar berilgan bo'lib, shu kunga qadar 412 nafariga subsidiyalar ajratildi. Bundan tashqari, 15 nafar yosh oilaning turar joy ijara pullari "Yoshlar daftari" orqali to'lab berildi.

– 2022-yilda oilaviy ajrimlar soni 23 foizga oshganidan xabaringiz bor. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4700 taga ko'p degani. Navoiy viloyatida raqamlar qanday ko'rsatkichda?

– Ajrimlar soni viloyatda o'tgan yilga nisbatan 109 taga kamaygan bo'lib, bu ko'rsatkichni 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, psixologik qabullar natijasida viloyatning Konimex, Navbahor, Nurota va Uchquduq tumanlarida yosh oilalar o'rtasidagi ajrimlar soni sezilarli kamaygan bo'lsa, viloyatning Tomdi va G'ozg'on shaharlarida 2021–2022-yillar-

da ajrim holatlari umuman qayd etilmagan.

– Demak, psixologik qabullar natijasida ajrimlar soni kamaymoqda, shundaymi?

– Ha. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi qarori II-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatda tashkil etilgan ishchi guruh hamkor tashkilotlar bilan psixologik qabullar o'tkazipti, ajrimlarning oldi olinmoqda. Mahallalarda ham xotin-qizlar va psixologlar uchrashuvlari tashkil etilmoqda. Xususan, G'ozg'on shahar "Marmarobod" mahallasi-da soha mutaxassislari ishtirokida psixologik trening o'tkazildi.

– Bu qabullarda nechta oila yarashtirildi?


– Viloyatdagi 330 ta mahallada haftada bir marotaba o'tkazilayotgan ana shunday psixolog qabullar natijasida muammoli va ajrim yoqasiga kelib qolgan 163 ta oilaning 73 nafari yarashtirildi.

– Ajrimlarga asosiy sabab deb nimalar ko'rsatilmoqda?

– Yosh oilalar o'rtasidagi muammo va ajrim holatlari tahlil etilganda oilaviy kelishmovchilik 98 ta, 2 ta farzandsizlik, 23 tasi uchinchi shaxs aralashuvi, 4 tasi spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar iste'moli sababli, 20 tasi moliyaviy va moddiy qiyinchiliklar, 16 tasi zo'raonlik sababli muammo va ajrim yoqasiga kelib qolgan aniqlangan.


– Xonadonlardagi tinch-totuvlik, avvalo, oiladagi sog'lom muhitga, mustaqil hayot ostonasida turgan yigit-qizlarimizni oilaviy turmushga tayyorlash bilan bevosita bog'liq. Bu borada nima deya olasiz?

– Turmush qurish ostonasidagi juftliklarning oiladek muqaddas dargohga qanday qarashi kelajakda ularning tinch-totuv yashashini begilab beradi. Bu borada ham bir qator ishlar amalga oshirganmiz. Yosh oilalar o'rtasida ajrimlar bilan bog'liq mulkiy noxush holatlarning oldini olish maqsadida "Nikoh shartnomasi – mulk huquqi kafolati" shiori ostida ijtimoiy aksiya o'tkazildi. Unda nikoh qurish istagida bo'lgan yoshlarga aniq tushunchalar berildi.



177
IMKONIYAT

KELAJAK
KASBLARI UCHUN
SUBSIDIYA



"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga zamonaviy kasblarni egallashi, axborot texnologiyalarini o'rganishi va ularni xorijiy tillarga o'qitish bo'yicha mahalladagi yoshlar yetakchisining ijobiy tavsiyasi asosida "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan olti oygacha muddatli o'quv kurslari uchun har oyda bazaviy hisoblash miqdori (300 ming so'm)ning 4 baravari (1,2 million so'm)gacha subsidiya ajratiladi.

Bunda ariza beruvchiga "1+" tamoyili asosida bir vaqtning o'zida zamonaviy kasb yoki axborot texnologiyalari o'quv kursi bilan birga, xorijiy til o'quv kursida o'qish xarajatlari uchun ham subsidiya ajratilishi mumkin.

Imtiyozni taqdim etish
tartibi va muddatlari:

Murojaatchi zamonaviy kasblarni egallash, axborot texnologiyalarini o'rganish va xorijiy tillarga o'qish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratishni so'rab yoshlardaftari.uz elektron platformasi orqali murojaat yo'llaydi.

Vasiylik kengashi murojaatni ariza beruvchi yashab kelayotgan mahalladagi yoshlar yetakchisiga ko'rib chiqish uchun yuboradi. Yoshlar yetakchisi ariza beruvchining o'qish xarajatlarini qoplash bo'yicha tavsiya yoki rad etish haqidagi xabarnomani Vasiylik kengashiga yuboradi. Bunda subsidiya ajratishni rad etish haqida xabarqoma yuborilganda, rad etish sabablari asoslantirilishi talab etiladi.

Vasiylik kengashi tomonidan subsidiya ajratish haqida qaror qabul qilingandan so'ng o'quv kursi uchun belgilangan mablag'lar 3 ish kuni ichida ariza beruvchining o'qiganligini tasdiqlovchi hisob-faktura va dalolatnomaga asosan nodavlat ta'lim tashkilotining hisob raqamiga o'tkazib boriladi.

Mahalladagi yoshlar yetakchisi ariza beruvchi tomonidan haqiqatda o'quv kursida o'qiyotganligini har oyda kamida bir marta monitoring asosida o'rganadi. O'rganish jarayonida ariza beruvchi tomonidan o'quv kursida o'qimayotganligi aniqlangan taqdirda yoshlar yetakchisining taqdimnomasiga asosan o'quv kursi uchun subsidiya berish to'xtatiladi.

1-oktabrdan
nimalar
o'zgardi?

YOSHLARGA 1 MILLIARD SO'MGACHA GRANT BERILADI



Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Prezidentimizning "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2022-yil 1-oktabrdan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish hamda eksportga yo'naltirish bo'yicha startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun **1 milliard so'mgacha miqdorda grantlar ajratish tartibi joriy qilinadi**. Bu Innovatsion rivojlanish vazirligi o'tkazadigan tanlov asosida ajratiladi. Mablag'lar esa investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan qoplanadi. Dastlabki bosqichda 60 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi.

QORAQALPOG'ISTONLIK YOSH TADBIRKORLARGA 7 YIL MUDDATGA QARZ BERILADI

Prezidentimizning "Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur'atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, **2022-yil 1-oktabrdan 2028-yil 1-yanvargacha** Qoraqalpog'iston Respublikasidagi yosh tadbirkorlarga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun zarur asbob-uskunalarni xarid qilish maqsadida Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi orqali 7 yil muddatga qarz mablag'lari beriladi.

Ajratiladigan kredit summasining 75 foizigacha (75 foizi ham kiradi), biroq umumiy qiymati **2,5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan kafilliklar taqdim etiladi**. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga eksport qilishda, shu jumladan, eksport qilinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun xarid qilingan xomashyoni respublika bo'ylab tashishda transport xarajatlarning 70 foizi tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilangan ro'yxatga asosan Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan qoplab beriladi.

AKT SOHASIDAGI O'QUV KURSLARI UCHUN TA'LIM KREDITI AJRATILADI

Prezidentimizning "Zamonaviy bilim va kasb-hunar egallash imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2022-yil 1-oktabrdan no-davlat ta'lim tashkilotlarining o'quv kurslarida yoshlarning axborot texnologiyalari sohasida o'qishi uchun ta'lim krediti ajratish tizimi yo'lga qo'yiladi. Ta'lim kreditlari markaziy bankning asosiy stavkasida **BHMning 65 baravarigacha 1 yillik imtiyozli davr bilan 4 yil muddatga ajratiladi**. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan oilalar farzandlari uchun ta'lim krediti olishda garov va kafillik talab etilmaydi.



SEKTOR BOSQICHLARI BOSHLANDI


"Besh tashabbus olimpiadasi"ning sektor bosqichiga start berildi. Qo'shrabot tumanidagi 4 ta sektorda ham stol tennis, shaxmat va shaxka bellashuvlari bo'lib o'tmoqda.

Birinchi sektorda o'tkazilgan stol tennis musobaqasida mahallalardan saralangan 90 nafar yosh qatnashdi. Ularning 40 nafari qizlar. Shaxmat musobaqasiga mahallalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan 110 nafar o'g'il-qiz qamrab olingan bo'lsa, shaxkada 78 nafar yigit-qiz bahslashdi.

Shaxmat musobaqasiga qiziqish ortganini raqamlar ham ko'rsatib turibdi. Bunga sabab esa Jahon shaxmat olimpiadasi ekani sir emas.

- *Bolalikdan otam bilan shaxmat o'ynardim, - deydi 27-30 yosh toifasida tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritgan Azmiddin Ubaydulloyev. - Lekin hech qachon otamni yuta olmanman. Umuman, boshqa soha vakili bo'lsamda, hozir ham shaxmatni "begona qilmayman". "Besh tashabbus olimpiadasi"da ishtirok etishdan asosiy maqsadim respublikada g'oliblikni qo'lga kiritishdir.*

Shaxmatda bir qoida bor: agar piyoda raqib kataklarining birinchi qatoriga yetib borsa, shohdan tashqari xohlagan figurasiga aylinishi mumkin. "Besh tashabbus olimpiadasi"da ishtirok etayotgan yoshlarni ham shaxmatdagi piyodaga qiyoslash mumkin. Dastlab mana shunday musobaqalar tajriba vazifasini o'taydi. Kelajakda ulardan Osiyo va jahon chempionlari chiqsa ajab emas!



Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

"MAQSADIMIZ – CHEMPIONLIK!"




Namangan shahridagi "G'uncha" mahallasida "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yinida "Algoritm" jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritib, sektor bosqichiga yo'llanma oldi.

- *Jamoamiz birinchi mavsumda ham ishtirok etgan, - deydi "Algoritm" jamoasi sardori Bobosher Mirmuhiddinov. - Omadsizlik va tajribasizlik sabab respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritishga o'lmadik. Bu mavsum tayyorgarligimiz yaxshi bo'ldi. Respublikada chempionlik uchun bor bilim va kuchimizni ishga solamiz.*

“MAHALLAMIZDA 4 TA SPORT MAYDONI QURILMOQDA”

Har bir yoshning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qiziqishlarini ro'yobga chiqarish mahallada yoshlar yetakchilariga yuklatilgan muhim vazifalardan biridir. Ularning mazkur vazifalarni ado etishda esa sportning o'rnini alohida. Bugun har bir mahallada tashkil etilayotgan “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalarida ham yoshlar sport turlari bo'yicha bellashmoqda.


Ammo bu bellashuvlarni tashkil etish uchun hamma mahallalarda sport maydonchalari mavjud emas. Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida yoshlar yetakchilarining tashabbuslari bilan bir nechta mahallada yangi sport maydonchalari bunyod etilib, foydalanishga topshirilmoqda. Xususan, Xorazm viloyatining qator mahallalarida ham. Quyida shunday tashabbuskor mahalladagi yoshlar yetakchilarining tajribasi bilan tanishtiramiz.



**Gulomjon
OTAJONOV,**
Yangibozor tumanidagi “Mang'itlar”
mahallasi yoshlar yetakchisi:

— Shu yaqin yillarda sport olamida yangi — “Street workout” atamasi tez-tez quloqqa chalinadigan bo'ldi. Bizning mahalla yoshlari ham bu sport turiga katta qiziqish bildirmoqda. “Besh tashabbus olimpiadasi”ning birinchi bosqichida mazkur sport musobaqalarini tashkil etishda bir qancha muammolarga duch keldik. Sababi hududimizda bu musobaqani o'tkazish uchun sharoit yo'q edi. Olimpiadaning ikkinchi bosqichida ham ayni muammolar takrorlanmasligi uchun

tuman hokimiga “Street workout” maydonchasiga ehtiyojimiz borligini aytdim. Taklifim qo'llab-quvvatlanib, mahallamizdagi usti yopiq futbol maydoni yonidagi qarovsiz bo'sh joyda “Street workout” maydonchasi qurildi. Hozir mahallamiz yoshlari bo'sh vaqtini shu maydonchada mazmunli o'tkazmoqda. “Besh tashabbus olimpiadasi”ning ikkinchi bosqichi ham hech bir muammasiz, yetarli sharoitlarda o'tkazildi. Bundan, ayniqsa, mahallamiz yoshlari xursand bo'ldi.



◀ **Husniddin
ABDULLAYEV,**
Hazorasp tumanidagi “Shovot”
mahallasi yoshlar yetakchisi:

— Mahallamiz yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun hududimizda joylashgan maktablardagi sport maydonlarida turli musobaqalar tashkil qilardim. Lekin ko'pchilik yoshlarimiz mazkur musobaqalarda ishtirok etishdan ko'ra sun'iy qoplamali maydonlarda futbol o'ynashga qiziqib, qo'shni mahallalarga ketishardi. Ularning o'yindan kech qaytishi ota-onalarda ham xavotir uyg'otardi. Shu bois o'z mahallamiz hududida ana shunday sport maydonchasi qurilishi uchun harakatga kirishdim.

Bundan ikki yil avval bir tadbirkor mahallamizda sun'iy qoplamali futbol maydonchasi qurish uchun yer olgandi, ammo mablag'i yetmagani uchun bu ish oxiriga yetmay qolgan. O'sha yerni mahallamizdagi 4-5 ta tadbirkorga mahalla yoshlari uchun bepul foydalanishga topshirish sharti bilan taklif qildim. Ularning hech biri taklifimga rozilik bildirmagach, bu ishni o'zim boshlashga qaror qildim.

Yangi mashina olish niyatimdan kechib, iyun oyi boshida ishga kirishdim. Bir hafta ichida kerakli materiallarni sotib oldim. Ish boshlanganimizdan 18 kun o'tib, futbol maydoni qurilishi oxiriga yetdi va foydalanishga topshirdik. Nuroniyalar duosi bilan ochilgan futbol maydonchamizning ilk o'yinchilari ham mahalla nuroniyalari bo'ldi.

Endi mahallamiz yoshlari boshqa mahalladagi maydonlarga borib, pul to'lab o'ynashmayapti. O'z uylarining yonginasida, hech qanday xarajatsiz futbol o'ynash imkoniga ega bo'lishdi. Bundan, ayniqsa, ularning ota-onalari xursand.



**Hurmat
YULDASHEV,**
Shovot tumanidagi “Archazor”
mahallasi yoshlar yetakchisi:

— Yengil atletika bo'yicha sport ustasi hamda murabbiy bo'lganim uchun mahallamizga yoshlar yetakchisi etib tayinlanganimdan so'ng bu sport turiga qiziquvchi yoshlarni saralab, ularga bepul mashg'ulotlar olib boradigan bo'ldim. Mehnatlarim “Besh tashabbus olimpiadasi”ning 1-mavsumida o'z natijalarini berdi. Mahallamiz yoshlari aynan yengil atletika va “Street workout” musobaqalari bo'yicha respublikada faxrli o'rinlarni egalladi.

Quvonarliki, mahallamiz yoshlari yengil atletika bo'yicha respublika bosqichining “B” ligasi bahslarida 27-30 yosh toifasida 1-o'rinni egalladi. “Street workout” bo'yicha ham respublika bosqichi “B” ligasida 22-26 yosh toifasidagi musobaqalarda bizning yigitlar g'olib deb topildi. Qiz bolalar o'rtasidagi yengil atletika musobaqalarining “A” ligasida 22-26 yosh toifasidagi mahallamiz qizlari ikkinchi o'rinni, ayni musobaqaning 27-30 yosh toifasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Va'daga muvofiq, mahallamiz yoshlari erishgan yutuqlari sabab mahallamizda 3 ta 700 kvadrat metrik universal sport maydonchasi va 1 ta “Street workout” maydonchasi qurilishi uchun sertifikatlar taqdim etildi. Mazkur universal sport majmuasi o'z ichiga futbol, basketbol, voleybol va “Street workout” maydonlarini oladi. Hozir har 4 ta sport maydoni quriladigan joylar belgilanib, qurilish ishlari boshlab yuborildi. Yaqin kunlarda mahallamizning 4 ta hududida zamonaviy tipdagi sport inshootlari foydalanishga topshiriladi. Bu haqda yana xabar beramiz.

Iqbol PARDAYEVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri



Suratda: Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi Ibroym Yusupov nomidagi ijod maktabining kimyo fani o'qituvchisi **Zaripa Tanirbergenova**.

Foto: **Maqsad HABIBULLAYEV** (O'ZA)

Bu mavzuda "Yoshlar ovozi" - da tahliliy maqola chop etilgan edi. Ayni paytda masala nihoyatda dolzarb tus olayotgani ijtimoiy tarmoqlardagi postlardan ham ma'lum bo'lmoqda. Eng yomoni, bu ijara yashayotgan talabalar hayotiga keskin ta'sir ko'rsatishi mumkin.

POYTAXTDA IJARA NARXI KESKIN OSHMOQDA

Tarmoq va pabliklarda ijarachilar ijara narxlarini oshirilgani haqida kvartiralarining egalari ogohlantirish olayotgani bo'yicha xabar va izohlar qoldirishmoqda. Bu o'tgan dam olish kunlari Twitter va Facebookda muhokamada bo'lgan asosiy mavzulardan biriga aylandi. O'zbekistonda ijara shartnomalari tuzishda ijara narxlarini real qiymati va tomonlarning majburiyatlari aniq ko'rsatilmaydi, shuning uchun ijarachilar ko'pincha uy egasining yangi shartlariga ko'nishga majbur bo'lishadi.

Ijarachi va uy egalari o'rtasidagi avval kelishilgan narxlarning keskin o'zgarib borayotganiga Rossiyadan kelayotgan qochoqlarning ta'siri haddan ziyod bo'lmoqda.

"Kommers.uz"ning yozishicha, rossiyaliklarning oqimi sababli poytaxtda kvartiralarining ijara narxi so'nggi ikki oy ichida ikki barobarga qimmatlashdi. Bu qaysi segmentga yoki qaysi tumanga oid tahlillar ekaniga aniqlik kiritilmagan.

Toshkentga kelgan va kelayotgan rossiyaliklarning telegramdagi kanal va guruhlaridagi muhokamalardan sezish mumkin, Toshkent ularning ko'pchiligiga allaqachon qimmatlik qilmoqda. Ayrim foydalanuvchilar o'zlari uchun Toshkent viloyatining Chirchiq, Angren shaharlari, viloyat markazlari bo'lgan Farg'ona, Qarshi, Urganch kabi shaharlardagi narxlar va infratuzilma sifati bilan qiziqishni boshlagan.

@the_bakiroo

telegram kanalidan olindi

MUALLIM MILLATNING SHA'NIDIR

1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylarga yo'llagan tabrigi barcha ustozlarni quvontirdi. Muallimning obro'-e'tibori millatning, butun xalqning obro'-e'tibori sifatida qaralayotgan jamiyatda har kuni qadr va e'zozni his etamiz.

Tabrikda keltirilganidek, keyingi yillarda yurtimizdagi yangi oliy o'quv muassasalari soni qariyb 2,5 barobarga ko'payib, 186 taga yetkazilgan, qabul kvotalari 3,5 barobar ortgan oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda g'oyat muhim rol o'ynamoqda. Sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida 42 ta nodavlat oliy o'quv yurti tashkil etildi, xorijiy OTM filiallari soni esa 31 taga yetdi.

Oliy ta'limda haqiqatan ham raqobat muhiti shakllanmoqda. Miqdor o'zgarishlari sifat o'zga-

rislariga ko'chmoqda. Kredit-modul tizimi ta'limni ham shakllan, ham mazmunan jahon standartlariga yaqinlashtiradi. Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlar o'z natijasini bermoqda.

Tizimni shaffoflashtirish, inson omilini kamaytirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ko'pgina o'zgarishlar qilindi. Ayni vaqtda oliy ta'limda quyidagi yo'nalishlarda raqamlashtirish ishlari tugallanmoqda:

"Elektron kutubxona" tizimini yaratish - bunda barcha oliy ta'lim muassasalarida mavjud 4 milliondan ortiq adabiyotlar to'liq elektron shaklga o'tkazilib, yagona platformadan foydalanishga o'tadi. Har bir professor-o'qituvchi va talabaga undan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

"Study in Uzbekistan" - "O'zbekistonda tahsil ol" maxsus veb-portalini ishga tushirish. Xorijiy mamlakatlarda yoshlarini O'zbekiston oliy ta'limiga jalb etish uchun maxsus portal. Bunda bilim sohalari, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, o'qishga qabul tartibi, muddati, o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumotlar, shuningdek, barcha oliy ta'lim muassasalarining sahifalari mavjud bo'lib, xorijlik yoshlarga muhim ma'lumotlar taqdim etiladi.

"Onlayn olimpiada" platformasini amalga joriy qilish - bu orqali oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'rtasida o'tkaziladigan fan olimpiadalarini elektron shaklda o'tkazish tizimi yaratiladi. Talabalar uzoq hududlarga bormasdan, o'z o'qish joyidan turib olimpiadada qatnashish imkoniyati ega bo'ladi. "adabiyot.edu.uz" platformasi orqali o'quv adabiyotlarini nashr etishga tavsiya berish jarayoni raqamlashtirildi. Bu platforma orqali oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan o'quv adabiyotlari, ya'ni darslik va o'quv qo'llanmalar ekspertizadan o'tkaziladi. Ijoiy baholangan adabiyotlarni nashr etish uchun elektron shaklda maxsus vazirlik guvohnomasi rasmiylashtiriladi.

Oliy ta'limdagi bunday o'zgarishlarning barchasi yoshlarning ilg'or bilimlarni egallashiga qaratilgan. Prezidentimiz aytganlaridek, "Hozirgi zamonda hamma jabhalarda ilm, bilim va salohiyat suv bilan havoday zarurligi, har qaysi davlat shu asosda taraqqiyotga erishishi, sodda qilib aytganda, inson bilak kuchidan ko'ra ilm kuchi bilan ko'proq daromad va obro'-e'tibor topishi mumkinligini hammamiz yaxshi anglaymiz".

Shuhrat YAKUBOV,

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktori

Xabar

MASLAHATCHILAR KENGASHI



Yoshlar ishlari agentligida "Yosh maslahatchilar" kengashining ikkinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

"Yosh maslahatchilar" kengashi "Thompson school" bilan hamkorlikda 0 dan IELTS darajasigacha o'rganish imkonini beruvchi 4 oylik intensiv kurs uchun 50 o'rinni grant e'lon qilgandi. Shunday grant joriy yil avgustda nemis tilini o'rganish uchun ham ajratildi. Yig'ilishda bu

mavzuga alohida to'xtalib, grantlar sonini yanada ko'paytirish, ularni yoshlar uchun sifatli va qulay tarzda tashkil etish, foydali kontentlar sonini yanada oshirish masalalari muhokama qilindi.

- "Yosh maslahatchilar" kengashi faoliyatini anchadan beri kuzataman. Grant haqidagi postga ko'zim tushgach barcha shartlarni bajarдим va "Thompson school"da o'qish imkoniyatiga ega bo'ldim. Onlayn darslar samarali o'tkazilyapti. Ayniqsa, men kabi abituriyentlarga juda foydali bo'lyapti, - deydi surxondaryolik Samariddin Rahimov.

"Yosh maslahatchilar" kengashi hamraisi Marjona Jo'raqulovning ta'kidlashicha, bugun oflayn loyihalardan ko'ra onlayn loyihalarga yoshlarni jalb qilish oson va natijador bo'lmoqda.

Komila HAMROYEVA,

"Yosh maslahatchilar" kengashi volontyori, O'ZMU talabasi



FOYDALI, AMMO DOIM HAM AMAL QILINMAYDIGAN QOIDALAR

Darslarga ulgur olmayotganingiz, qo'shimcha mashg'ulotlarga vaqt topolmayotganingiz, uy vazifalarini do'stingizdan ko'chirib olishga majbur bo'layotganingizga asosiy sabab nima ekani haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Shu savolimizga javoban tengdoshlarimizning ayrimlari tez charchayotgani, qancha harakat qilsa ham, rejalashtirgan ishlariga ulgur olmayotganini sabab qilib ko'rsatdi.

Keling, bugun siz bilan o'zi kichik, ammo biz uchun katta-katta to'siqlarni "sovg'a" qilayotgan muammolar haqida suhbatlashamiz, mutaxassislar fikriga ham quloq tutamiz! Balki, biz ularga har kuni duch kelsak-da, e'tibor bermayotgan yoki voz kechishni istamayotgandirmiz?!

Ko'p va kech uxlash. Tengdoshlarimiz orasida bu odatning zararli ekanini bilmaydiganlar topilmasa kerak, lekin voz kecha olmaydiganlar juda ko'p!

Qiziqarli teleko'rsatuv, internetda kino tomosha qilish, ijtimoiy tarmoqlarda "layk" bosish yoki befoyda chatlashish sabab o'z vaqtida uyquga yotmaymiz, natijada erta uyg'onish oldimizda turgan eng katta muammoga aylanib qoladi. Kun davomida borishingiz kerak bo'lgan joyga kech qolishingiz, rejangizdagi ishlariga ulgur olmayotganingiz ham shu bilan bog'liq. Eng yomoni, uyquga to'ymagan organizm va miya kun davomida uyqusirash holatidan chiqa olmaydi. Achchiq qahva yoki baland musiqa sizga vaqtincha yordamchi bo'lishi mumkin, xolos.

Ba'zan siz vaqtli uxlashni qanchalik xohlamang, bajarilishi shart bo'lgan vazifalaringiz: uy topshiriqlari yoki yakunlanmay qolgan hisobotlaringiz bunga to'siq bo'ladi. Bu vaziyatda qanday yo'l tutish kerak? Charchagan va uxlashni istayotgan miyani yanada zo'riqtirib ishlashmi yoki shunchaki hammasini ertaga qoldirish?



darajada jamlangan diqqat, tiniqib dam olgan miya bilan o'qiganlaringizni tushunib olishga va xotirada saqlashga qiynalmaysiz".

Internetga chegara qo'yilishi kerak, ammo ko'pincha bu haqda unutilib qo'yamiz. To'g'ri, Facebook yoki Instagram tarmog'idagi yangiliklar lentasini kun davomida yangilab, kuzatib borishingiz mumkin, bunda turli ko'ngilochar va qiziqarli kontentlar bilan tanisha olasiz. Biroq shuni unutmangki, bu lenta hech qachon oxiriga yetmaydi, u chegarasiz! Sizingiz vaqtningiz, imkoniyatlaringiz esa chegaralangan, aniqrog'i uni foydaliroq narsalarga sarflashingiz mumkin va bu o'z qo'lingizda. Anchadan beri qo'lga olmay qo'ygan kitobingiz bilan yolg'iz qolish uchun qulay fursat keldi.

Shunchaki, telefoningizni bir necha soatga o'chirib qo'ying, hech qanday qo'ng'iroq yoki xabar sizning ma'naviy hordiq chiqarishingizdan muhimroq bo'la olmaydi. Do'stingiz bilan soatlab suhbatlashib yoki Tiktok tomosha qilib olgan taassurotlaringizdan-da yorqinroq xotiralarni sizga birgina kitob ortig'i bilan bera oladi. Vaqt va diqqat sabab sizda ham yangi bilim, ham rang-barang tasavvur hosil bo'ladi, boyiydi!

“**KECHQURIN 4 SOAT SARFLAB HAM UDDALAY OLMAGAN ISHLARINGIZNI ERTALAB 2 SOAT ICHIDA MUVAFFAQIYAT BILAN AMALGA OSHIRASIZ.**”



Uzoq yillik pedagogik tajribaga ega ustoz, filologiya fanlari nomzodi, dotsent **Lato-fat Toshmuhammedova shunday deydi:**

"Avvallari abituriyent o'quvchilarimga, hozir esa o'zim dars beradigan universitetdagi talabalarimga kechquringi ish yoki o'qishdan samara yo'qligini ko'p ta'kidlayman. Yarim tungacha kitob o'qib faqat aqliy faoliyatingizga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lasiz, bu xotira pasayishiga ham sabab bo'ladi. Kechqurin oila davrasida suhbatlashing, o'zingiz yoqtirgan shirinlikni tayyorlang - vaqtningizni dam olishga sarflang. Ertalab esa sahar - soat 4 yoki 5 da uyg'onib, o'qilishi kerak bo'lgan kitoblaringizni, qilinishi kerak bo'lgan uy vazifalaringizni tartib bilan bajarishni boshlang. Kechqurin 4 soat sarflab ham uddalay olmagan ishlaringizni ertalab 2 soat ichida muvaffaqiyat bilan amalga oshirasiz. Samaradorlik esa sizni hayron qoldiradi! Eng yaxshi



"Yoshlar ovozi" muxbiri

Ziyoda RAHIMBOYEVA tayyorladi.

Zararli ratsion. Eng foydali sabzavot va mevalar, sharbatlar ham o'z vaqtida va me'yorida bo'lmasa, organizmimiz uchun zarar yetkazishi mumkin. Ovqatlanish vaqtida televizor tomosha qilish yoki telefondan foydalanish haqida gapirmasak ham bo'ladi. Xalq tilida aytganda, bunda siz ovqatni emas, ovqat sizni "yeydi"!

Bugunga kelib 15-25 yoshlilarda eng ko'p kuzatiladigan muammo-ortiqcha vazn. Shifokorlarning ogohlantirishiga qaramay, kun davomida energetik, gazli ichimliklar, yarim tayyor mahsulotlar, tarkibida shakar miqdori yuqori bo'lgan shirinliklardan uzoqlashmasangiz, vazn tashlash siz uchun katta muammoga aylanadi. Yuqorida sanab o'tilgan mahsulotlar sabab tanada yig'ilgan yog'lardan xalos bo'lish uchun anchagina ter to'kishingizga to'g'ri keladi.

"Fast food"lar bizning eng ko'p murojaat qiladigan, "moda"ga aylanib ulguragan yengil, ammo zararli ratsionimiz bo'lib bormoqda.

Keling, tezpishar ovqatlarning tarkibini tahlil qilamiz: asosan, xolesterin, uglevod, tuz, shakar va yog', ko'p miqdorda ta'm hamda rang beruvchi moddalar. Bugun yoshlardan qandali diabet, gastrit, ortiqcha vazn hamda yurak kasalliklari kuzatilayotgani aynan nosog'lom ovqatlanish oqibatidir.

Agar bularning tayyorlanish jarayoniga e'tibor bersangiz, go'sht chala va me'yoriga yetkazib pishirilmagan bo'ladi, oshqozon esa tabiiyki, uni hazm qilishga qiynaladi. Natijada og'riq va oshqozon devorlarida zararlarni kuzatiladi. Tanada ortiqcha yog' to'planishiga asosiy sabab ham taom tarkibida keragidan ortiq xolesterin va uglevod borligidir. Bora-bora yurakning atrofi yog' bilan qoplanadi, turli kasalliklarga chalinuvchanlik oshadi. Birgina uglevodning sutkalik miqdori yoshlar uchun 160 mg.dan oshmasligi lozim, ammo tezpishar ovqatlarda 310 milligrammi tashkil etadi.

Diyetolog Sobira Tursunboeva energetik ichimliklar va "fast food"larning zararli jihatlari haqida o'z tajribalarini bo'lishdi.

- Turli yosh va vaznda miyozlar bilan ishlovchi diyetolog sifatida yoshlarimizga milliy taomlarimizni tavsiya qilaman. Qadimdan osh, dumba yog'i yoki boshqa milliy taomlar ota-bobolarimizda semizlik, xotiraning pasayishi, aqliy faoliyat bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirmagan. Chunki ular me'yorni va o'z vaqtida ovqatlanishni bilishgan. Ko'kat va sabzavotlardan tayyorlangan salatlar ham vazn bilan bog'liq har qanday muammoni oson bartaraf etishga yordam beradi. Tovuq go'shti, karam va uning boshqa turlari, ayniqsa, kuz oylarida baliq mahsulotlarini yeyish aqliy qobiliyatni yaxshilaydi, ko'z nurini o'tkirlashtiradi. Nonushtada kolbasa mahsulotlaridan voz kechib, quritilgan mevalar, ayniqsa, yong'oq yeyishni tavsiya qilaman, - deydi mutaxassis.

“NOBEL” OLIY MUKOFOT EMAS YOXUD ADABIYOT OLAMIDAGI MUKOFOTLAR

Dunyoda har bir soha vakillarini munosib taqdirlaydigan, qo'llab-quvvatlaydigan tashkilot va mukofotlar bor. Shu jumladan, insoniyat qalbinu uyg'otuvchi va ma'rifat nurini sochuvchi adabiyot olamida ham uzoq va samarali ijod qilgan yozuvchilar yoki yaxshi asarlar uchun turli xil e'tiroflar tashkil etilgan.




Shahribonu RAHMATOVA,
Yoshlar ovozi mukofoti

Masalan, “Nobel” mukofoti. Bu mukofotni orzu qilmagan yozuvchi bo'lmasa kerak. Hozircha nafaqat o'zbekistonlik ijodkor, balki qo'shni Markaziy Osiyo davlatlarida ham bu sharafiga musharraf bo'lganlar yo'q.

Xo'sh, nega adabiyot yo'nalishida beriladigan mukofotlar ko'p bo'lishiga qaramay, barcha “Nobel”ni og'zidan qo'ymaydi? Adabiyot olamida “Migel de Servantes”, “Xans Kristian Andersen”, “Buker”, “Gonkur”, “Pulitzer”, “Britaniya Fentzezi”, “Nadal” kabi mukofotlar borligidan xabaringiz bormi? Keling, bugun shu mukofotlarning ba'zilari bilan tanishamiz.

“Migel de Servantes” mukofoti. “Don Kixot” kitobi muallifi Migel de Servantes sharafiga nomlangan mukofot har yili ispan tilida ijod qiluvchi yozuvchilarning umr bo'yi erishgan yutuqlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida beriladi. Uni 1975-yilda Ispaniya Madaniyat vazirligi ta'sis etgan. Ispan tilida sozlashuvchi har qanday muallif mukofotga nomzodini qo'ya oladi. “Migel de Servantes” mukofotiga ega bo'lgan ijodkorlar orasida keyinchalik “Nobel” sovriniga ega bo'lganlar ham bor.



“Buker” mukofoti. Xalqaro Buker mukofoti 2004-yilda ta'sis etilgan bo'lib, 2005-yildan 2015-yilgacha har ikki yilda bir marta ingliz tilida nashr etilgan asarlar uchun berilgan. Unda muallifning doimiy faolligi, jahon adabiyotidagi o'rni e'tiborga olinadi. 2016-yildan beri mukofot har yili ingliz tiliga tarjima qilingan va Buyuk Britaniya yoki Irlandiyada nashr etilgan asarga berilib, g'olib 50 ming funt sterling (taxminan 56 ming dollar) bilan mukofotlanadi. Sovrin muallif va tarjimon o'rtasida teng taqsimlanadi.

“Xans Kristian Andersen” mukofoti. Dunyodagi eng yaxshi bolalar yozuvchilari va illyustratorlarni tan oladigan ushbu adabiy mukofot “Kichik Nobel mukofoti” deb ham ataladi. 1956-yil YUNESKOning bolalar va o'smirlar adabiyoti xalqaro kengashi tomonidan tashkil etilgan mukofot har ikki yilda bir marta o'z egalariga topshiriladi. Taqdirlash marosimi 2-aprel – Xans Kristian Andersen tug'ilgan kunda bo'lib o'tadi. G'oliblar oltin medal va diplomni Daniya qirolichasining shaxsan o'zidan qabul qilib oladi va

ularga 60 ming funt sterling (taxminan 90 ming dollar) pul mukofoti topshiriladi.

“Pulitzer” mukofoti. Qo'shma Shtatlardagi gazeta, jurnal, onlayn jurnalistika, adabiyot va musiqiy kompozitsiyadagi yutuqlar uchun beriladi. U 1917-yilda gazeta noshiri sifatida boylik orttirgan Jozef Pulitserning vasiyatnomasi asosida tashkil etilgan va Kolumbiya universiteti tomonidan boshqariladi. Sovrinlar har yili yigirma bir nominatsiya bo'yicha beriladi. G'oliblar



sertifikat va 15 000 AQSh dollari miqdoridagi pul mukofotiga ega bo'ladi.

“Nadal” mukofoti. Ispaniyadagi eng qadimgi adabiy mukofot nashriyotlar tomonidan berilishi bilan boshqalaridan farq qiladi. U urushdan keyingi yillarda yangi iste'dodlarni kashf etish va adabiyotni rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan. Destino gazetasining sobiq muharriri bolalikkdagi ilk o'qituvchisi sharafiga mukofotni shunday nomlagan. Dastlabki taqdirlash 1944-yilda bo'lib o'tgan edi.

Aslida hech bir ijodkor mukofot yoki tirikchilik qilish uchun yozmaydi. Lekin ularning insoniyatga qilgan xizmati mukofotga loyiq.

SAHRODAGI DENGIZ

Abduvali BO'RIYEV,
O'ZA muxbiri

Aydarko'lni mahalliy aholi sahraning “feruzi” daryosi deb nomlaydi.

Aydar-Amasoy ko'llari tizimi yurtimizning eng noyob tabiiy suv havzalaridan biri. Ko'lining tabiati hamda ko'l hududini muhofaza qiladigan Aydar-Amasoy ko'llar tizimi suv obyektlarini muhofaza qilish tezkor guruhi faoliyati bilan tanishish maqsadida Navoiy viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi va O'zbekiston Jumalistar uyushmasi tomonidan press-tur tashkil qilindi.

Chordara GESi qurilgach, 1969-1970-yillarda GES suv ko'pligidan tosha boshlagan va to'g'on o'pirlilishining oldini olish uchun shlyuzlar ozgina ochilgan. Natijada suv Armasoy pasttekisligiga oqa boshlab, keyinchalik Aydarko'l hosil bo'lgan. Aydarko'l o'tgan asrning o'rtalariga qadar quruq yer bo'lgan. Bahorda yog'ingarchiliklar sabab bu yerda Tuzkon ko'li hosil bo'lib, kunlar isishi bilan bug'lanib ketgan. Mazkur ko'l Orol dengizidan keyin O'zbekistondagi ikkinchi sho'r ko'l sanaladi.

Ko'lining uzunligi sharqdan g'arbga tomon qariyb 280-300 kilometr ga, eni shimoldan janubga tomon 30-35 kilometr gacha cho'zilgan. Ko'lining umumiy maydoni 3000 kvadrat kilometr bo'lib, havzada deyarli 10 milliard kub metr suv to'plangan. Bugungi kunda ko'l yuzasi tobora qisqarib bormoqda.

– Bu ulkan suv havzasining vujudga kelishi bilan cho'l zonasida yangidan yangi tabiiy landshaftlar, o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosi shakllangan, – deydi viloyat ovchilar va baliqchilar sport birlashmasi Navoiy viloyati bo'limi mas'ul xodimi O'tkir Jo'rayev. – Ma'lumotlarga ko'ra, ko'l yurtimiz aholisining uchdan bir qismini baliq bilan ta'minlaydi. Aydarko'l aholi yashaydigan joydan uzoq bo'lsa-da, dam olish uchun juda qulay hudud sanaladi. Bugungi kunda Aydarko'l atrofida dam olish hududlari qurilib, sayyohlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yerda o'tovlarda dam olib, tuyada sahra kezish ham mumkin. Ko'l maydonida bir nechta ov xo'jaligi tashkil etilgan bo'lib, qo'riqxonaga



maydonidan tashqarida ov mavsumlari o'tkazilib, yovvoyi o'rdaklar, g'oz, tustovuq, baliqlar va hatto yovvoyi cho'chqalar ovlashga ruxsat beriladi.

Press-tur davomida ishtirokchilar Aydar-Amasoy ko'llar tizimining suv obyektlarini muhofaza qilish tezkor guruhi ko'llar tizimi akvatoriyasini muhofaza qilish, brakonerlik holatlarini aniqlash va ularning oldini olish, huquqbuzarlarni javobgarlikka tortish choralarini ko'rish, ko'llar tizimida patrul xizmatini olib borish jarayonlari bilan tanishdi.

– Avvallari bu yerda nazorat maskani yo'q edi, – deydi viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Nurali Boltayev. – Keyingi besh yil ichida tizimimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xodimlarning xizmat vazifalarini olib borishlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. Hududda turizmning rivojlanayotgani, bioxilma-xillikni asrab qolishda tun-u kun ish olib borish uchun ikkita nazorat maskani tashkil etildi. Qo'shimcha ravishda suvda 9 ballik to'lqiniga dosh beradigan motorli qayiq bilan ta'minlandi.

Tur davomida OAV vakillari tizim xodimlari ish faoliyati bilan yaqindan tanishdi va aniqlangan brakonerlik holatini rasmiylashtirish jarayonida ishtirok etdi.



VENGRIYA

Go'zal SATTOROVA

(O'ZA)

internet materiallari
asosida tayyorladi.



Vengriya 896-yili tashkil topgan bo'lib, Yevropaning eng qadimiy davlatlaridan biri sanaladi. Karpat havzasida 90030 kvadrat kilometrga yayilgan, shimolda Slovakiya, shimoli-sharqda Ukraina, shimoli-g'arbda Avstriya, sharqda Ruminiya, janubda Serbiya, janubi-g'arbda Xorvatiya, g'arbda Sloveniya bilan chegaradosh. Vengriya aholisi 10 millionga yaqin. Poytaxti va eng yirik shahri Budapesht.

Bu mamlakat bir muddat Avstriya-Vengriyaning bir qismi ham edi. Vengriya juda jozibador o'lka. Ayniqsa, Budapeshtga tashrif buyurganlar ushbu mehmondo'st joyga qanday qilib abadiy ko'chib o'tish haqida o'ylashadi, degan fikrlar yuradi.

Vengriyaning chuchuk suvli, Markaziy Yevropadagi eng yirik Balaton ko'li ham sayyohlar orasida mashhur. Bu ko'l "Vengriya dengizi", deb ham ataladi. Mazkur hududda yarim mingdan ortiq



tiq termal buloq mavjud, shu bois sog'lomlashtirish markazlari ko'p.

Xortobad milliy bog'ining eng diqqatga sazovor joyi – mamlakatdagi eng uzun To'qqiz ark ko'prigi 167 metrni tashkil etadi.

Vengrlar Tinchlik yo'nalishidan tashqari barcha yo'nalishlar bo'yicha Nobel mukofotini olgan. Bu aholi jon boshiga hisoblaganda dunyoda eng yuqori ko'rsatkichlardan biri.

Sharikli ruchkani aynan vengrlar ixtiro qilgan, yer yuzidagi eng ommabop boshqotirma –

Rubik kubiklarini shu yurt fuqarosi o'ylab topgan. Vengriya kashfiyotchilari orasida asosiy dasturlash tili va golografiya mualliflari ham bor.

Odatda biror davlat yoki millat haqida so'z yuritilganda, albatta, milliy taomlarga to'xtalib o'tiladi. Vengriyaning an'anaviy taomi – gulash. Deyarli, barcha vengr taomlariga qo'shiladigan asosiy ziravor – paprika.

Yana bir qiziq ma'lumot: Vengri-



yadagi "Xerend" zavodining qo'lda ishlangan hashamatli chinni mahsulotlaridan qirollik oilalari va butun dunyo boylari foydalanadi.

Vengriyada qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) stavkasi dunyoda eng yuqori – 27 foiz etib belgilangan.

Budapesht metrosi London metrosidan keyin ikkinchi bo'lib 1896-yilda barpo etilgan, davlatning ming yillik yubileyida ilk bor poyezdlar yer ostida harakatlana boshlagan.

Vengr tili – o'rganish eng qiyin zamonaviy tillardan biri. Ba'zi so'zlari ruschaga o'xshash talaffuz qilinadi, ammo ma'no jihatidan keskin farq qiladi. Masalan, "hovuz" so'zini ishlatmagan yaxshi, chunki vengr tilida bu "odobsiz" ma'nosini anglatadi.

Vengriyada grechka faqat qushlar uchun ozuqa sifatida ishlatiladi, shuning uchun supermarketda emas, balki chorva do'konida sotiladi.

Darvoqe, Budapeshtga borgan kishi yevropadagi eng uzun – qariyb 54 metrlik tramvayni ko'radi. Poytaxtda nafaqat Budapesht ko'chalari, balki Dunay daryosi

bo'ylab suzib yuruvchi "amfiya-turist"lar avtobusi ham bor.

Statistik ma'lumotga ko'ra, o'rtacha har bir vengr haftasiga bir yarim kilo yog' iste'mol qiladi. Shundan kelib chiqib yog' iste'moli bo'yicha Vengriya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Budapeshtda joylashgan Yevropadagi eng yirik sinagoga bir vaqtning o'zida 3000 ga yaqin kishini sig'dira oladi.

Poytaxtdan 90 kilometr uzoqlikda joylashgan Xollokyo qishlog'i ham 450 kishiga mo'ljallangan uy, ham ochiq osmon ostidagi etnografik muzey ekanligi bilan ajralib turadi. Qishloq XVIII asrdan beri, deyarli, o'zgarmagan.

Vengriya Sharqiy Yevropadagi qishloq xo'jaligi eng rivojlangan mamlakatlardan biri. Mamlakat hududining 70 foizga yaqini qishloq xo'jaligi yerlaridan iborat. Ta'kidlash joizki, 2008-yil inqirozdan oldin mamlakat "yosh" Yevropa Ittifoqi a'zolari orasida iqtisodiy rivojlantirishning eng yaxshi ko'rsatkichlaridan birini qayd etdi va 2014-yilga kelib yana yetakchi o'rinni egalladi.

Hozir Vengriya iqtisodiyoti, asosan, mashinasozlik asosiga qurilgan. Nisbatan arzon ishchi kuchi mavjud, shuning uchun ko'plab

global xoldinglar Vengriyada kuchli avtomobil zavodlari qurishga tayyor. Masalan, Raba, Suzuki, Mercedes va boshqa brendlar.

Vengriya va O'zbekiston o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatilgan. Ikki mamlakat o'rtasida o'zaro mahsulot yetkazib berishni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik, kartoshkachilik va boshqa sohalarida aniq loyihalar bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning Vengriyadagi tashrifi joriy yil 30 yilligi nishonlanadigan ikki tomonlama munosabatni yangi bosqichga olib chiqishi, hamkorlikning yangi yo'nalishlarini ochishga poydevor bo'lishi aytilmoqda.



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar Ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA'DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100/083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-1055, Adadi – 10528. Boshiga topshirish vaqti – 21.00. Topshirileli – 20.00.

Soytimizga o'tish uchun QR-tadini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6